

## TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY RAQAMLI DARSLIK LARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Tursunov Mirolim Ahmadovich**

*Qarshi xalqaro universiteti*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent*

*E-mail: [m.a.tursunov23@gmail.com](mailto:m.a.tursunov23@gmail.com).*

**Аннотация:** *Ushbu maqolada ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi sharoitida raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Hozirgi kunda talabalarga mutaxassislik fanlarini o'qitish fanlarni o'qitish samaradorligini oshirishda, aralash va mustaqil ta'limni keng joriy etishda, hamda raqamli darsliklarning turlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

**Tayanch so'zlar:** *zamonaviy axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, raqamlashtirish, raqamli darslik, mustaqil ta'lim, aralash ta'lim, online, offline raqamli darsliklar, veb-saytlar, veb texnologiyalar, chatbot.*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ta'lim tizimini raqamlashtirish hamda interaktiv ta'lim muhitini shakllantirish zarurati zamonaviy raqamli darsliklarni yaratish va amaliyotga tatbiq etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli darsliklar nafaqat o'quv materiallarini elektron ko'rinishda taqdim etuvchi vosita, balki interaktiv, multimedaviy va adaptiv ta'lim muhiti elementlarini o'zida mujassamlashtirgan zamonaviy pedagogik platforma sifatida qaralmoqda.

Raqamli darsliklarning didaktik imkoniyatlari o'quv jarayonini individuallashtirish, ta'lim muhitini optimallashtirish, talabalar bilimni shaffof baholash, mustaqil ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda aralash ta'lim (blended learning) texnologiyalarini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, elektron ta'lim resurslari, Learning Management System (LMS) platformalari, multimedia texnologiyalari, mobil ta'lim (m-learning) hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining raqamli darsliklar tarkibiga integratsiyalashuvi ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlarning raqamli darsliklar mavzusiga oid ilmiy izlanishlari, pedagogik qarashlari hamda raqamli ta'lim konsepsiyalariga oid nazariy va amaliy yondashuvlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli darsliklar talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish, tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv motivatsiyasini oshirish hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, elektron ta'lim resurslari va sun'iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi zamonaviy raqamli darsliklarni yaratish hamda ulardan samarali foydalanish

masalasining dolzarbligini yanada oshirmoqda. Raqamli darsliklar o'quv jarayonining interaktivligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash va individual ta'lim ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli darsliklardan foydalanib usuliga ko'ra asosan ikki turga: onlayn (online) va oflayn (offline) elektron ta'lim resurslariga bo'lish mumkin.

Onlayn elektron ta'lim resurslari internet tarmog'ida joylashtirilgan va undan foydalanish uchun tarmoq ulanishini talab qiluvchi axborot hamda o'quv materiallari majmuasidan iborat. Bunday resurslarga Moodle, Google Classroom, Coursera va boshqa ta'lim platformalarini misol qilib keltirish mumkin. Onlayn ta'lim resurslarining asosiy afzalligi o'quv materiallarini tezkor yangilash, foydalanuvchilar bilan interaktiv muloqotni tashkil etish hamda masofaviy ta'limni samarali yo'lga qo'yish imkoniyatiga egaligidir. Shu bilan birga, turli internet manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, muayyan fan bo'yicha barcha mavzularni to'liq va tizimli qamrab oladigan elektron resurslarni topish har doim ham oson emas. Bundan tashqari, onlayn tizimlardan samarali foydalanish uchun internet tarmog'ining uzluksiz ishlashi talab etiladi. Talabalar tomonidan topshiriqlarning mustaqil bajarilishini nazorat qilish hamda ularning haqiqiy bilim darajasini obyektiv baholash jarayonida ham ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Oflayn elektron ta'lim resurslari esa internet tarmog'iga ulanmagan holda foydalanish uchun mo'ljallangan elektron o'quv materiallari va dasturiy vositalar majmuasidan iborat. Bunday resurslar o'quv dasturida nazarda tutilgan barcha mavzularni to'liq qamrab olishi, multimedia elementlari, animatsiyalar, virtual laboratoriya ishlari hamda interaktiv topshiriqlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ularda talabalar bilimni nazorat qilishning turli usullari va vositalarini joriy etish, foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda qulay interfeys yaratish imkoniyati mavjud. Oflayn elektron ta'lim resurslarining asosiy kamchiligi esa o'quv materiallarini tezkor yangilash va yangi axborotlarni doimiy ravishda kiritish imkoniyatining cheklanganligi bilan izohlanadi.

Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida onlayn va oflayn elektron ta'lim resurslarining afzalliklarini o'zida mujassamlashtirgan integratsiyalashgan raqamli darsliklarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday raqamli darsliklarda o'quv dasturidagi barcha mavzular to'liq qamrab olinishi, multimedia va interaktiv elementlardan foydalanilishi, internet mavjud bo'lmagan sharoitda ham ishlash imkoniyati yaratilishi hamda internet tarmog'iga ulanganda o'quv materiallarini avtomatik yangilash, topshiriqlarni nazorat qilish va sun'iy intellekt asosidagi maslahat xizmatlarini taqdim etish funksiyalari joriy etilishi tavsiya etiladi.

Shunday qilib, onlayn va oflayn elektron ta'lim resurslarining o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud bo'lib, ularni uyg'unlashtirgan holda qo'llash ta'lim

jarayonining samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish hamda o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov M.A. Uzluksiz ta'limda mustaqil ta'lining o'rnini va ahamiyati ("Axborot texnologiyalari" fanidan elektron ta'lim resurslarini yaratish misolida). Zamonaviy ta'lim № 2(99)-2021. 16-23-b.
2. Tursunov M.A. The importance of using electronic resources in education *Academia: an international multidisciplinary research journal* V. 11 2021-y. 642-646 p.
3. Abduqodirov A.A. va boshq. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya. - T.: O'zbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi "FAN" nashriyoti, 2009. - 145 s
4. Абдуразаков М. М. К вопросу подготовки будущего педагога к профессиональной деятельности в современной информационно-коммуникационной образовательной среде. //Информатика и образование. - 2011. - № 9. - С. 83-85.
5. Shodiyev Rizamat Davronovich, and Ergashev Nuriddin Gayratovich. "ANALYSIS OF EXISTING RISKS AND METHODS OF COMBATING THEM IN CLOUD TECHNOLOGIES". *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, vol. 18, Nov. 2023, pp. 190-8, <https://www.americanjournal.org/index.php/ajper/article/view/1522>
6. Турсунов М.А. Талабаларнинг мустақил ишларини бажаришда электрон таълим ресурсларидан фойдаланиш. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириш. – Ноқис, 2020. – №4. – Б. 134-137